

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



1-keys. “Xalqaro maydondagi tenglik”



Vaziyat:

Temur televizorda O‘zbekiston sportchilarining xalqaro musobaqalarda Davlat bayrog‘ini baland ko‘tarib, madhiyamiz sadolari ostida shohsuvaga ko‘tarilayotganini ko‘rib, g‘ururlandi.



Savollar:

- 1 Davlat mustaqilligi mamlakatga xalqaro munosabatlarda qanday huquqlarni beradi?
- 2 Vatan bayrog‘i va madhiyasi dunyo sahnalarida yangraganda qanday tuyg‘ularni his qilasz?
- 3 Yoshlar yurtimiz dovrug‘ini dunyoga tanitish uchun nimalar qilishi kerak?
- 4

Qiziqarli topshiriq:

Xalqaro maydonda O‘zbekiston nomini ulug‘lagan 2 nafar shaxs (sportchi, olim yoki san‘atkor) haqida qisqa ma‘lumot yozing.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)




2-keys. “Qonunlarimiz va taraqqiyot”



Vaziyat:

Jamshid jamiyatda har bir fuqaro qonunlarga rioya qilishi shartligini va Bosh qomusimiz hamda Davlat ramzlari mustaqillik poydevori ekanini sinfda muhokama qildi.



Savollar:

- 1 Mustaqil davlatning o‘z qonunlari va Bosh qomusi bo‘lishi nega muhim?
- 2 Qonunlarga rioya qilish va intizomli bo‘lish vatanparvarlikka kiradimi?
- 3 Davlat mustaqilligining asosiy belgilariga nimalar kiradi?
- 4

Qiziqarli topshiriq:

Mustaqil davlatning 4 ta asosiy belgisini (Hudud, Tili, Ramzlari, Qonunlari va h.k.) ko‘rsatuvchi sxema chizing.

